

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)



1-keys. “O‘zbekistonim madhiyasi”



Vaziyat:

Har kuni maktabda darslar boshlanishidan oldin O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi. Akmal madhiya yangraganda qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, do‘stlariga ham tek turishni aytdi.



Savollar:

- 1 Madhiya yangraganda biz o‘zimizni qanday tutishimiz kerak?
- 2 Davlatimiz madhiyasi va gerbi nimani anglatadi?
- 3 Akmalning harakatini qanday baholaysiz?



Topshiriq:

Madhiyamizning birinchi to‘rtligini yoddan aytib bering va qo‘lingizni ko‘ksingizga qo‘yib ijro eting.

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)



2-keys. “Mustaqillik sovg‘asi”



Vaziyat:

Bayram oldidan Farida buvisidan 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston mustaqil bo‘lgani haqida eshitib qoldi. U Mustaqillik bayramiga atab chiroyli tabriknoma tayyorlamoqchi bo‘ldi.



Savollar:

- 1 O‘zbekiston qaysi yili va qaysi kuni mustaqillikka erishgan?
- 2 Mustaqillik bayrami kuni uyingizda qanday tayyorgarlik ko‘riladi?
- 3 Siz Vatanningizga qanday ezgu tilaklar bildirasiz?



Topshiriq:

Mustaqillik bayramiga bag‘ishlab 3 ta jumlada samimiy tabrik so‘zini yozing.

